

**ILK O'RTA ASRLAR XORAZM TANGALARIDA SIYOSIY VA
IQTISODIY JARAYONLARNING AKS ETISHI**

*Boltaboyeva Shahrizoda,
Urganch davlat universiteti, Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar fakulteti,
Tarix yo'naliishi magistranti,
shahrizodaboltaboyeva@gmail.com*

Maqolaning qisqacha mazmuni: Ushbu maqolada ilk o'rta asrlarda Xorazmda kechgan siyosiy va iqtisodiy jarayonlarni numizmatik jihatdan o'rganish hamda mintaqada kechgan transmintaqaviy iqtisodiy-madaniy aloqalar to'g'risida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Xorazm, E.E.Nerazik, Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi, B. I. Vaynberg, xorazmshoh, Xamjerd.

**REFLECTION OF POLITICAL AND ECONOMIC PROCESSES ON THE COINS
OF KHORAZM IN THE EARLY MEDIEVAL TIMES**

Boltaboyeva Shahrizoda,
Urganch state university, Socio-economic sciences faculty,
Department of history, Master's degree student,
shahrizodaboltaboyeva@gmail.com

Annotation: This article deals with the numismatic study of the political and economic processes in Khorezm in the early Medieval times, as well as the transregional economic and cultural relations in the region.

Key words: Khorezm, E.E. Nerazik, Khorezm archaeological-ethnographic expedition, B. I. Weinberg, Khorezmshah, Khamjerd.

**ОТРАЖЕНИЕ ПОЛИТИЧЕСКИХ И ЭКОНОМИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ НА
МОНЕТАХ ХОРАЗМА ВО ВРЕМЯ РАННЕГО СРЕДНЕВЕКОВЬЯ**

Балтабаева Шахризода,
Ургенчский государственный университет, Факультет социально-экономических наук, Направление истории, Магистрант,
shahrizodaboltaboyeva@gmail.com

Аннотация: Данная статья посвящена нумизматическому исследованию политических и экономических процессов в Хорезме в раннем средневековье, а также межрегиональных экономических и культурных связей в регионе.

Ключевые слова: Хорезм, Э.Э. Неразик, Хорезмская археолого-

этнографическая экспедиция, Б.И. Вайнберг, хорезмшах, Хамджендерд.

Kirish. Ko‘hna Xorazm o‘zining boy tarixi, moddiy va manaviy madaniyati, ulkan ilmiy merosi bilan jahon tarixiy taraqqiyotida munosib o‘rin tutadi. Shu jihatdan olganda bu olka tarixi va madaniyatini o‘rganishga qiziqish hamma vaqt yuqori bolgan. Ayniqsa, ilk orta asrlar davrida (milodiy IV — X asrlar) Xorazmning nafaqat Orta Osiyo, balki jahon madaniyati tarixida tutgan o‘rnii va ro‘li beqiyosdir. Ko‘proq iqtisodiy ehtiyojlar vositasi sifatida zarb etilgan mazkur tangalardagi ma’lumotlar o‘z davri siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotini yoritishda o‘ziga xos o‘rin tutadi. Jumladan, ularda o‘rin olgan hukmdor ismi va unvoni, turli xil ramziy belgilar (tamg‘a va hk.) ko‘proq siyosiy hayotni yoritishga yordam bersa, ikonografik (tasvir va syujetlar) va paleografik jihatlari, yasalish texnikasi, metall turi va boshqalar o‘sha davrdagi madaniy-iqtisodiy holatni tasavvur qilishga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. XX asrning 20-30-yillarida Xorazmning qadimgi va o‘rta asrlardagi tarixini chuqur va har tomonlama organish maqsadida yangi — dadil qadam qoyildi. Zero, shu yillardan boshlab, Xorazm tarixini arxeologik va numizmatik jihatdan o‘rganish ishlari olib borila boshlandi. Xorazm vohasida ilk o‘rta asr yodgorliklaridan Burgut qala va uning atrofidagi hajmi kichik aholi punktlari E.E.Nerazik tomonidan organilgan. Xorazmning qadimgi tarixi va uning ilk orta asrlardagi siyosiy tarixini o‘rganish borasidagi izchil tadqiqotlarning boshlanishi 1937-yilda tashkil etilgan Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi faoliyati bilan uzviy bog‘liqdir. Ilk o‘rta asrlar Xorazm siyosiy tarixini arxeologik va numizmatik jihatdan o‘rganishning keyingi bosqichi 1958-yildan, yani O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston filiali tarkibida «Arxeologiya» bo‘limining tashkil etilishidan boshlandi. Zero, 50 yildan ortiq davom etgan arxeologik tadqiqotlar boy numizmatik manbalar berdi. Bu davr tangalari asosan O.I. Smirnova, E.V. Rtveladze, V.A. Livshis, Ye.V. Zeymal, B.I. Vaynberg kabi tangashunos olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Numizmatika bo‘yicha eng kop ish olib borgan tadqiqotchi bu B. I. Vaynberg hisoblanadi. Uning tadqiqotlari aynan biz tanlagan mavzu davrlarini qamrab oladi.

Tadqiqotning nazariy va metodologik asoslari sifatida taniqli arxeolog, tilshunos, o‘lkashunos, adabiyotshunos, manbashunos, tarixchi olimlarning asarlari hamda ilmiy tadqiqotlari xizmat qiladi. Tanlangan mavzuning mohiyatidan kelib chiqqan holda uni yanada chuqurroq va batafsilroq yoritish uchun bir qator tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Numizmatik materiallarning tarixiy manba sifatida ahamiyati shundaki, yozma manbalarda uchraydigan ayrim nuqsonlar (xususan, ma’lumotning yetqazilish darjasasi, til va yozuv farqliligi natijasida ism, unvon va atamalarning asliyatdan uzoqlashishi va b.) tufayli yuzaga keladigan anglash movchiliklar ularda ko‘p uchramaydi. Shu jihatdan olganda, tanga-pullarni ishonchli

va sobit tarixiy manba sifatida baholash mumkin.

IV-VIII asrlar Xorazm davlatchiligi va siyosiy boshqaruv tuzumi haqida faqat bazi yozma malumotlarnigina hisobga olmaganda, hech qanday malumot yoq. Numizmatik tadqiqotlar ma'lumotlariga ko'ra Xorazmda davlat tepasida shoh turgan. Ular "xorazmshoh" deb ulug'lanib, bu an'ana O'rta Osiyoning boshqa hududlariga ko'ra ancha uzoq vaqt saqlanib qolgan. Ya"ni ba'zi hududlardagina (Toxaristonda- "malikshoh", Termizda- "termizshoh") va bazi vaqtlardagina mahalliy hukmdorlar shoh unvoni bilan yuritilgan. Bu Xorazm davlatchiligi tarixida, boshqarish tartibida uzoq vaqt sezilarli o'zgarishlar bo'lmaganligini ko'rsatadi.

Xorazm siyosiy boshqaruv tuzumi haqida yana bir ma'lumot bu "xisrav" va "bagpur" unvonlarining mavjudligidir. "Xisrav" unvoni birinchi bor arab muallifi Balamiy asarida qandaydir Xamjerd degan hudud hukmdori yoki Xamjerd degan hukmdor unvoni sifatida uchraydi. Mashhur xorazmshunos olim S.P.Tolstov fikricha, Xorazmda arab bosqini arafasida yuqoridagi ikkita unvon bir vaqtida ishlatilgan. Yani, xisrav-xorazmshoh diniy vazifalarni bajaruvchi hukmdor, bagpur esa u bilan sherikchilikda boshqaruvchi dunyoviy hukmdor hisoblangan[2.] Ammo bu fikr keyinchalik yana bir mashhur olim B.I.Vaynberg tomonidan rad etilib, bu ikkala unvon bir paytda bir hukmdorga nisbatan qo'llanganligini ta'kidlaydi, lekin nima uchun shundayligini o'zi ham to'liq izohlab bera olmaydi. Xorazmning arab bosqinidan keyingi tarixiga oid bazi numizmatik va yozma manbalar mavjud. Jumladan, arab manbalarida(Ibn al-Asir, Tabariy-Balamiy) — Mansur, Iroq, Ahmad va Abu Abdulloh Muhammad va Abdulloh ibn Ashkom kabi afrig'iy-xorazmshohlarning nomlarining eslatib o'tilishi, Kanik, Saushfan(Beruniyda SHaushafar, xitoy manbalarida Shaoshifen), Askajvar II — Abdulloh nomlari bilan zarb etilgan tangalarning hamda Kerdor tarixiy hududidan Xusrav nomi bilan zarb etilgan tangalarning topilishi afrig'iylar sulolasasi, aniqrogi Janubiy Xorazm tarixining bazi davrlarini toldirishga yordam beradi.[1] Ammo aynan shimoliy Xorazmda ilk o'rta asrlarda yoki arab bosqinidan keyin qanday siyosiy jarayonlar kechganligi masalasi Xorazm tarixining eng kam bayon qilingan sahifasi sifatida uni o'rganish eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Numizmatik tadqiqotlar bu davrlarda Xorazmda mikoiliylar sulolasasi hukmronlik qilganligini ko'rsatib, ammo afsuski, yozma manbalarda bu davrga oid ma'lumotlar nihoyatda kamdir. Faqat, X asrning oxirlarida Shimoliy Xorazmda yangi ma'muniylar sulolasining hukmronligi o'rnatilganligi bizga ma'lum xolos. 995-yilda Shimoliy Xorazm hukmdori Ma'mun ibn Muhammad janubiy Xorazmni o'ziga bo'yundirib, Xorazmni poytaxti Urganch bo'lgan yaxlit davlatga birlashtirdi[1].

Somoniylar davrida ulkan mintaqadagi siyosiy barqarorlik natijasidagina Xorazm nisbatan xo'jalik muvaffaqiyatlariga erishgan deyishimizga to'liq asos bor. Hatto numizmatik materiallarga tayanadigan bolsak, Xorazm savdogarlari so'g'd savdogarlaridan keyin, ba'zi hollarda esa teng mavqedha ish yuritib, asta-sekin

Movarounnahr savdosida o‘z mavqelarini oshirib borganligini ko‘rish mumkin. Chunonchi, IX-X asrlarga oid So‘g‘d shaharlarining faqat uchtasida — Varaxsha, Poykent, Qumsovgandan topilgan tangalarni tahlil qilish shuni korsatdiki, bu tangalar orasida Xorazm mayda ayirboshlov tangasi, faqat Samarqand Sogdi tangalaridan keyin ikkinchi orinni egallaydi. Shu o‘rinda mashhur tarixchi Narshaxiyning ma'lumoti qiziqish uyg‘otadiki, u o‘zining «Buxoro tarixi» asarida arablar istilosи davrida va undan oldin (VII-VIII asrlar) Buxoro ichki savdosida Xorazm tangalari hukmronlik qilganligini yozib otgan edi[4]. Ammo keyinchalik vaziyat bora-bora Xorazm savdogarlari foydasiga o‘zgarganligini ko‘ramiz.[5] Bu davrda Xorazm Buyuk Ipak yoliniн shimoliy tarmog‘i orqali va Kavkaz orqali Vizantiya va Yevropa bilan savdo aloqalari olib borishga harakat qilgan. Buni arxeologik tadqiqot natijalari ham tasdiqlaydi. Masalan, 1988- yilda Kislovodsk shahrining Sharqiy chekkasidagi Mokraya Balka yodgorligidan Xorazmshoh Shovushfanning kumush draxmasi topilgan. 1997 yilda esa Shimoliy Xorazmdagi Kuyukqala yodgorligidan Vizantiya imperatori Avgust Tiveriy (698-705)ning oltin tangasi topildi. Boshqirdiston hududidan milodiy VII-VIII asrlarga oid Xorazm tangalari ham topilgan. Kamaboyi hududlaridan esa III-VIII asrlarga tegishli Xorazm kumush tangalari topilgan. Bu topilmalar hali ko‘pgina tadqiqotlarni talab qilsa-da, shunisi aniqki, xorazmliklar yuqorida korsatib otilgan savdo yoli orqali Yevropa bilan faol savdo munosabatlarda bo‘lganlar[5].

Xulosa va takliflar. Xorazm hududida ilk o‘rta asr qal’alarining joylashishi, ularning nomlari to‘g‘risida yetarli manbalar yoqligi sababli ularni joylashtirish muammoligicha qolmoqda. Xorazm hududining ilk o‘rta asr tarixi sahifalarini yoritishda shu davrga oid manbalardagi malumotlar va tarixiy yodgorliklarda keng miqyosda arxeologik izlanishlar natijasida olingan ashylar ahamiyat kasb etadi. Buning uchun ilk o‘rta asr yodgorliklarida keng arxeologik tadqiqotlar olib borishni talab qiladi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

- [1]. Вайнберг Б.И. Монеты древнего Хорезма.- М., 1977, с.98-99.
- [2] Tolstov S.P. Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab.- Т., 1964, 239-242 betlar.
- [3] Narshaxiy. Buxoro tarixi.- Т., 1966, с.100.
- [4]. Толстов С.П. Древний Хорезм. - М.: Издание МГУ, 1948. -352 с.
- [5] Мамбетуллаев М.М. Византийская индикация из Куюк-кала (Северный Хорезм). Нумизматика Центральной Азии. Вып IV. — Т.: «Офсет-Принт», 1999. —с.29-31.